



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

MAHALLA – IJTIMOYIY-MA’NAVYI BARQARORLIKNING ASOSIY BO’G’INI

Sanjarbek Davletov

Ma’mun universiteti, professori (DSc)

Muxayyo Nurullayeva

Hazorasp tuman hokimi o‘rinbosari

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida mahalla institutining ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahalla “oila-mahalla-maktab” hamkorligi doirasida yoshlar ma’naviyatini mustahkamlovchi, ijtimoiy faollikni oshiruvchi va milliy birdamlikni ta’minlovchi asosiy ijtimoiy makon sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kalit so‘zlar: mahalla, ijtimoiy-ma’naviy barqarorlik, Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy kapital, milliy birdamlik, fuqarolik jamiyati, globallashuv, mafkuraviy tahdid, bandlik, kambag‘allikni qisqartirish, jamoatchilik nazorati.

МАХАЛЛЯ — ОСНОВНОЕ ЗВЕНО СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ

Санжарбек Давлетов

Университет Маъмуна, профессор (DSc)

Мухайё Нуруллаева

заместитель хокима Хазараспского района

Аннотация

В данной статье на основе комплексного подхода анализируется роль института махалли в обеспечении социально-духовной стабильности в условиях Нового Узбекистана. Результаты исследования показывают, что махалла в рамках партнерства «семья-махалла-школа» становится основным социальным пространством, укрепляющим духовность молодежи, повышающим социальную активность и обеспечивающим национальное единство.

Ключевые слова: махалла, социально-духовная стабильность, Новый Узбекистан, социальный капитал, национальное единство, гражданское общество, глобализация, идеологические угрозы, занятость, сокращение бедности, общественный контроль.

MAHALLA AS THE MAIN FOUNDATION OF SOCIO-SPIRITUAL STABILITY

Sanjarbek Davletov

Ma’mun University, Professor (DSc)

Muxayyo Nurullayeva

Deputy Hokim of Khazarasp District

Abstract

This article examines the role of the mahalla institution as a key component of socio-spiritual stability in the context of New Uzbekistan. The study concludes that the mahalla functions as a crucial platform within the “family–mahalla–school” framework, contributing to the formation of patriotic values, moral resilience, and active citizenship among youth.

Keywords: mahalla, socio-spiritual stability, New Uzbekistan, social capital, national solidarity, civil society, globalization, ideological threats, employment, poverty reduction, community governance.

Yangi O‘zbekiston sharoitida mamlakat hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Bugungi yangilanishlar nafaqat iqtisodiy o‘shish yoki boshqaruv tizimini takomillashtirish, balki

inson manfaatlari, uning qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan tub ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Erkin va farovon jamiyat barpo etish, aholining munosib yashash sharoitlarini yaratish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish hamda inson qadrini oliy ijtimoiy qadriyat sifatida e'tirof etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shu jihatdan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi jamiyatning har bir bo'g'inida, xususan, eng quyi ijtimoiy institut hisoblangan mahalla tizimida ham sifat jihatidan yangilanishlarni yuzaga chiqarmoqda.

Bugungi kunda mahalla faqat ma'muriy-hududiy birlik yoki aholining yashash joyi bilan bog'liq boshqaruv shakli emas, balki jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi, fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Mahalla ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, oilalar bilan bevosita ishlash, aholi muammolarini joyida aniqlash va hal etish, ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar, xotin-qizlar va keksalar bilan tizimli ishlashda davlat siyosatining eng yaqin va samarali bo'g'iniga aylanmoqda. Ayniqsa, "inson — jamiyat — davlat" tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar mahallaning jamiyatdagi o'rnini yanada oshirib, uni ijtimoiy kapitalni shakllantiruvchi asosiy mexanizmlardan biriga aylantirdi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda 9,4 mingdan ortiq mahalla mavjud bo'lib, ularning har biri o'z hududidagi aholining turmush darajasi, bandligi, ijtimoiy himoyasi, ma'naviy muhiti va fuqarolik faolligini ta'minlashda muhim vazifalarni bajarib kelmoqda. Mahallalarda joriy etilgan "yettilik" tizimi ushbu institut faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur tizim orqali mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq xodimi kabi mas'ul shaxslarning hamkorlikdagi faoliyati yo'lga qo'yildi. Natijada aholi muammolarini alohida-alohida emas, balki kompleks yondashuv asosida o'rganish va hal etish imkoniyati kengaydi.

Mahallalarda kredit, subsidiya, moddiy yordam, bandlikka ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya, kasb-hunarga yo'naltirish kabi 100 dan ortiq xizmatlarning mahalla darajasida ko'rsatilishi aholiga davlat xizmatlarini yanada yaqinlashtirdi. Bu esa, bir tomondan, aholining davlat idoralarga murojaat qilishdagi ortiqcha byurokratik to'siqlarini kamaytirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, muammolarni joyida, tezkor va manzilli hal etish imkonini yaratdi. Ushbu imkoniyatlar ta'sirida 7,5 million fuqaro kambag'allikdan chiqqani, ishsizlik darajasi 2 barobarga kamaygani, 3,5 mingdan ortiq mahalla zamonaviy qiyofa kasb etganini qayd etish lozim [7]. Bu ko'rsatkichlar mahalla tizimining nafaqat ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi, balki iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi, aholining o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytiruvchi va mahalliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi muhim institutga aylanganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, mahalla raislarining vakolat muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirilishi ularning uzoq muddatli dasturlar asosida ishlashi, hududdagi muammolarni chuqur o'rganishi va barqaror boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishi uchun muhim huquqiy asos bo'ldi. Mahalla raislariga zarur resurslar, tashkiliy imkoniyatlar va huquqiy vakolatlarning berilishi ularning mas'uliyatini oshirish bilan birga, mahallaning amaliy ta'sirchanligini kuchaytirdi. Ayniqsa, mahallalarda bankir va soliqchilarni joylashtirish orqali aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, oilaviy biznes, kasanachilik, xizmat ko'rsatish va kichik ishlab chiqarish loyihalarini mahalla kesimida rivojlantirishning yangi bosqichi boshlandi. Bu jarayon mahallani oddiy boshqaruv bo'g'inidan iqtisodiy faollik, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik hamkorligini uyg'unlashtiruvchi kompleks institut darajasiga olib chiqmoqda.

Umuman olganda, Yangi O'zbekiston sharoitida mahalla tizimining mazmunan yangilanishi mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning xalq hayotiga bevosita kirib borayotganini ko'rsatadi. Mahalla bugun davlat va fuqaro o'rtasidagi ishonch ko'prigi, ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etish maydoni, aholining tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi markaz hamda ma'naviy-ma'rifiy muhitni mustahkamlovchi muhim institut sifatida qaralmoqda. Shu bois mahalla institutini yanada rivojlantirish, uning vakolatlari va moddiy-texnik

imkoniyatlarini kengaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda fuqarolar ishtirokini kuchaytirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlisga va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida mahalla institutiga alohida urg'u berilib, uni ijtimoiy kapitalni boyitish va milliy birdamlikni mustahkamlashdagi markaziy bo'g'in sifatida anglashga qaratilgan strategik yondashuv ilgari surildi [1]. Ijtimoiy kapital, odatda, jamiyat a'zolari o'rtasidagi ishonch, hamkorlik, ijtimoiy normalar va o'zaro aloqalar tarmog'i sifatida talqin qilinadi [6, 57]. O'zbekiston sharoitida mahalla ana shu ishonch va hamjihatlik muhitini shakllantiruvchi tabiiy ijtimoiy makon vazifasini bajaradi.

Globalashuv sharoitida global axborot oqimida ma'lum ma'noda "xaos" alomatlari kuchayib bormoqda [5, 24]. Axborot makonida yoshlar ongiga turli mafkuraviy tahdidlar orqali ta'sir ko'rsatish holatlari ortib, individualizm, egotsentrizm va iste'molchilik g'oyalari jamoaviylikka asoslangan sharqona qadriyatlarga zid tarzda tarqalayotgani kuzatiladi. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi barqaror jamiyat barpo etishda esa ijtimoiy faollikni oshirish ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki jamoaviylik, o'zaro hamkorlik va birdamlik kuchli bo'lgan muhitda mafkuraviy xatarlarni bartaraf etish imkoniyatlari kengayadi. Faol inson faqat shaxsiy manfaati uchun harakat qilmay, o'z maqsad va manfaatlarini jamiyat hamda davlat manfaatlariga uyg'unlashtira oladigan shaxsdir.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-u hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan. Shu ma'noda oila jamiyat ichidagi muhitdir [3, 226]. Bu borada Jeyms Koulmanning ijtimoiy kapital nazariyasi alohida ahamiyatga ega. U farzand tarbiyasi va ta'lim olishiga ta'sir etuvchi uchta asosiy omilni ajratib ko'rsatadi: moliyaviy kapital, inson kapitali va ijtimoiy kapital. Olimning ta'kidlashicha, bolaning kelgusi hayotida ijtimoiy kapital, ya'ni oiladagi o'zaro munosabatlar, ishonch va ma'naviy muhit hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mahalla oiladan keyingi ikkinchi muhim tarbiya instituti sifatida "oila — mahalla — maktab" hamkorligi asosida yoshlarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma'naviy barqarorlik va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda amaliy maydon vazifasini bajaradi. Mahallada tashkil etilayotgan sport to'garaklari, ma'rifiy kurslar va ko'ngillilik harakatlari yoshlarni ijtimoiy hayotga faol jalb etib, ularda mas'uliyat va hamjihatlik tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda jinoyatchilikni jilovlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham munosib e'tirof etilmoqda. Xususan, "Safety Perceptions Index"da O'zbekiston 2021–2024-yillar davomida yuqori natijalarni qayd etib, 146 ta mamlakat orasida 29-o'rinni egalladi. Fuqarolarning jinoyatlardan himoyalanganlik hissi, "mahalla yettiligi" institutining samarali faoliyati, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va profilaktika qilish mexanizmlarining joriy etilishi ushbu jarayonda muhim omil bo'ldi [4, 11].

Mahallaning asosiy vazifalaridan biri uning ijtimoiy funksiyasi hisoblanadi. Kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, nogironligi bo'lgan, yolg'iz keksalar uchun mahalla yordami ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. 2024-yilning 2–5-oktabr kunlari Samarqand shahrida "Aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning o'rni" mavzusida o'tkazilgan Birinchi xalqaro konferensiya doirasida mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi masalalarda mahallaning ishtiroki hamda "mahalla yettiligi" faoliyati atroflicha muhokama qilindi. Konferensiya yakunlari bo'yicha Deklaratsiya qabul qilinib, unda Yangi O'zbekiston sharoitida mamlakat rahbari tashabbusi bilan mahalla institutining jamiyatdagi mavqeini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani, uning vakolatlarini kengaytirish va institutsional rolini kuchaytirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilayotgani alohida ta'kidlangan [2].

Mahallada ijtimoiy kapitalning muhim ko'rinishi me'yoriylik hisoblanadi. Jamoatchilik tomonidan qabul qilingan axloqiy me'yorlar, milliy va diniy urf-odatlar hamda odob-axloq

qoidalari inson xulq-atvorini tartibga solib, rasmiy huquqiy mexanizmlardan tashqari qo‘shimcha ijtimoiy nazorat tizimini shakllantiradi. Masalan, mahallada jamoatchilik fikri salbiy baholaydigan xatti-harakatlar — oilaviy zo‘ravonlik, ortiqcha dabdaba va isrofgarchilik, beparvolik yoki ijtimoiy mas‘uliyatsizlik holatlari nisbatan kam uchraydi.

O‘zbekistonda “mahallabay ishlash” tizimi joriy etilgandan so‘ng mahalla institutining ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘rni yanada kuchaydi. Avvallari mahalla ko‘proq aholining ijtimoiy muammolarini aniqlash, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish va fuqarolar o‘rtasida hamjihatlikni mustahkamlash bilan bog‘liq tuzilma sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda u hududiy iqtisodiy rivojlanishning ham muhim tayanch bo‘g‘iniga aylanmoqda. “Mahallabay ishlash” tizimi orqali har bir hududning ichki imkoniyatlari, aholining kasbiy salohiyati, mavjud resurslari, bandlik darajasi va tadbirkorlikka bo‘lgan ehtiyoji alohida o‘rganilmoqda. Bu esa mahalla kesimida aniq, manzilli va amaliy natija beradigan iqtisodiy loyihalarni shakllantirish imkonini bermoqda.

Mazkur tizim joriy etilgandan keyin mahalla darajasida tadbirkorlik tashabbuslari, kooperatsiya shakllari, oilaviy biznes, kasanachilik, xizmat ko‘rsatish va kichik ishlab chiqarish yo‘nalishlari sezilarli darajada faollashdi. Ayniqsa, aholining o‘z yashash joyida daromad topishi, bandlikka jalb qilinishi, hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik, tikuvchilik, pazandachilik, servis xizmatlari va boshqa mahalliy imkoniyatlarga tayangan faoliyat turlarining rivojlanishi mahallaning iqtisodiy funksiyasini kengaytirdi. Bunda mahalla faqat tashkiliy vositachi emas, balki aholining ehtiyojlari, muammolari va imkoniyatlarini davlat dasturlari, moliyaviy institutlar hamda tadbirkorlik subyektlari bilan bog‘lovchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy platforma sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mahalla institutining bunday yangi funksiyasi Yangi O‘zbekiston islohotlarining eng muhim jihatlaridan biri — islohotlarning bevosita xalq hayotiga kirib borayotganini ko‘rsatadi. Chunki iqtisodiy rivojlanish faqat yirik sanoat korxonalarini yoki markazlashgan dasturlar orqali emas, balki har bir mahalla, har bir oila va har bir fuqaroning iqtisodiy faolligi orqali ham ta‘minlanadi. Shu nuqtayi nazardan, “mahallabay ishlash” tizimi mahalliy rivojlanishning quyi bo‘g‘inini kuchaytirib, davlat siyosatini aholining kundalik hayoti bilan uzviy bog‘lashga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistondagi islohotlar sharoitida mahalla instituti jamiyatda ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlovchi asosiy bo‘g‘in sifatida mustahkamlanmoqda. Mahalla nafaqat ma‘muriy-hududiy birlik, balki jamiyatning ma‘naviy qadriyatlarini, ijtimoiy hamjihatligini, o‘zaro ishonchi va barqaror taraqqiyotini saqlab turuvchi asosiy ijtimoiy makon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uning faoliyatida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ma‘naviy tarbiya, jamoatchilik nazorati, bandlikni ta‘minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar o‘zaro uyg‘unlashmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti
2. Aslonov N. Mahalla – faol va nufuzli ijtimoiy tuzilma. 11.12.2024. // Inson huquqlari milliy markazi
3. Jamiyat barqarorligini ta‘minlashda yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishning innovatsion omillari. – Toshkent, 2021.
4. Kriminologiyaning dolzarb masalalari: “Xavfsiz oila” tamoyilini amalga oshirishda mahalla va xotin-qizlar faoliyatining kriminologik jihatlarini: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2025-yil 14-may). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025.
5. Mafkuraviy tahdidlarning ma‘naviy jarayonlar rivojiga ta‘siri va uni oldini olish mexanizmlari. – Toshkent: Voris nashriyoti, 2025.
6. Saidov S. Ijtimoiy kapital – fuqarolik jamiyatining muhim mezon. – Toshkent, 2019.
7. Yusupova X. Mahalla – imkoniyat, taraqqiyot va islohotlar ostonasi. 16.10.2025. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi